

Armanistonning O'zbekistondagi elchisi Sharqshunoslik instituti faoliyati bilan tanishdi

Armanistonning O'zbekistondagi elchisi Aram Grigoryan O'zR FA Sharqshunoslik institutiga tashrif buyurdi va Institut rahbariyati bilan uchrashdi. Uchrashuv davomida elchi Institut hamda M.Mashtots nomidagi "Matenadaran" qadimiy qo'lyozmalar instituti o'rtaida ilmiy aloqalar o'rnatish istagini bildirdi. O'z navbatida, Institut rahbariyati ham tegishli muzokaralar olib borishga tayyoyligini bildirdi. Elchi Aram Grigoryan O'zbekiston hukumati tomonidan mamlakatda qadimiy qo'lyozmalarni o'rganish va ushbu sohani rivojlantirish uchun yaratilgan sharoitlarni yuqori baholadi. Sharqshunoslik mutaxassisasi sifatida Aram Grigoryan tomonlar o'rtaidagi yaqin hamkorlik va uning mamlakatlar o'rtaidagi munosabatlarni mustahkamlashdagi foydasi haqida o'z fikrlarini bildirdi.

